

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

MAXSUS PEDAGOGIKA

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan*

TOSHKENT – 2014

UO‘K 37.013 (075)

KBK 74.5

P-99

**P-99 Maxsus pedagogika (Darslik). –T.: «Fan va texnologiya»,
2014, 368 bet.**

ISBN 978–9943–4497–9–4

«Maxsus pedagogika» darsligi uch bo‘limdan iborat bo‘lib, birinchi bo‘lim Oligofrenopedagogika (P.M.Po‘latova) deb nomlanib, mazkur bo‘limda aqli zaif bolalar maktabida o‘qitish jarayonining xususiyatlari, aqli zaif bolalar maktabida ta‘limni tashkil etish shakllari va metodlarini amalga oshirishning xususiyatlari, maxsus maktabda o‘qitish jarayoni ta‘lim-tarbiyaviy, korreksion-rivojlanuvchi vazifalari va tamoyillari kabi masalalar ochib beriladi. Ikkinchi bo‘lim Surdopedagogika (D.B.Yakubjonova, Z.N.Mamarajabova) deb nomlanadi. Mazkur bo‘limda kar va zaif eshituvchi bolalar maktabida o‘qitish jarayonining xususiyatlari, O‘zbekiston Respublikasida eshitishida nuqsoni bo‘lgan shaxslarning ta‘lim tizimi, eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning pedagogik tasnifi, kar va zaif eshituvchi bolalar maktabida ta‘limni tashkil etish shakllari va metodlarini amalga oshirishning xususiyatlari, maxsus maktabda o‘qitish jarayoni ta‘lim-tarbiyaviy, korreksion-rivojlanuvchi vazifalari va tamoyillari, eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning tarbiya jarayoni mazmuni va oilada tarbiyalash kabi masalalarni qamrab oladi.

Uchinchi bo‘lim Tiflopedagogika (Sh.M.Amirsaidova, L.Sh.Nurmuxamedova, A.D.Sultonova) deb nomlanadi. Ushbu bo‘limda ko‘r va zaif ko‘ruvchi bolalar maktabida o‘qitish jarayonining xususiyatlari, ko‘r va zaif ko‘ruvchi bolalar maktabida ta‘limni tashkil etish shakllari va metodlarini, ko‘r va zaif ko‘ruvchi bolalarni tarbiyalash jarayonida maktab va oila hamkorligi, tiflotexnika kabi masalalar yoritiladi.

UO‘K 37.013 (075)

KBK 74.5

Mualliflar:

**P.M.Po‘latova, L.Sh.Nurmuxamedova, D.B.Yakubjonova,
Z.N.Mamarajabova, Sh.M.Amirsaidova, A. D.Sultonova**

Taqrizchilar :

V.S.Rahmonova – p.f.n., professor ;

D.A.Nurkeldiyeva – p.f.n. dotsent;

D.Nazarova – p.f.n., dotsent

ISBN 978–9943–4497–9–4

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2014.

SO‘Z BOSHI

O‘zbekiston Respublikasidagi mustaqillik odimlari tufayli ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy o‘zgarishlar yuz bermoqda. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida ta’lim samaradorligiga erishish ustuvor vazifa qilib qo‘yilmoqda. Uzluksiz ta’limni amalga oshirishga qaratilgan davlat hujjatlari qabul qilindi va ular hayotga tatbiq etilmoqda. Xalq ta’limining barkamol shaxs tarbiyasini, malakali mutaxassislar tayyorlashni yuqori va jahon talablari darajasiga mos ravishda amalga oshirish maqsad va vazifalari belgilandi. Bu jarayon «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni ro‘yobga chiqarishdagi zamonaviy bosqichda Oliy ta’lim muassasalari mukammal ta’lim standartlari, o‘quv metodik qo‘llanmalar va darsliklarini yaratish kabi muammolarni hal etishni talab etmoqda. Xususan, «Maxsus pedagogika» (surdopedagogika, oligofrenopedagogika, tiflopedagogika) fanni o‘qitishdan maqsad – defektologiya fakulteti talabalarida ruhiy va jismoniy rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalar uchun maxsus muassasalarda korreksion ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish shakllari hamda usullari bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdir. «Maxsus pedagogika» (surdopedagogika, oligofrenopedagogika, tiflopedagogika) fani darsligi ruhiy va jismoniy rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalarni maxsus ta’lim-tarbiya jarayoni nazariyasi va amaliyoti, rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalarning xususiyatlari, ularni rivojlantirish, korreksiya vositalarini yaratish, qo‘llash, o‘rganish masalalarini qamrab oladi.

Pedagogika oliy o‘quv yurtlari Defektologiya yo‘nalishi talabalar maxsus pedagogikaning metodologik asoslari, xalq ta’limi hamda pedagogika fanining hozirgi zamon talablari, rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar ta’lim-tarbiyasi nazariyasi va amaliyotining hozirgi zamon holati bilan tanishib borishadi. Bunda «Maxsus pedagogika» fani yetakchi o‘rin egallaydi. Oliy o‘quv yurtlari bakalavriatida «Maxsus pedagogika» fani quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘qitish hamda tarbiyalash asoslarining nazariy bilimlari;
- amaliy kasbiy ko‘nikmalarining shakllanishi;

- pedagogik qobiliyatlarining rivojlanishi;
- bo'lajak kasbga qiziqish, o'z ustida ishlash hamda pedagogik ko'nikmasini takomillashtirish.

Birinchi bo'lim Oligofrenopedagogika deb nomlanib, mazkur bo'lim p.f.n.dots P.M.Po'latova tomonidan tayyorlangan. Mazkur bo'limda aqli zaif bolalar maktabida o'qitish jarayonining xususiyatlari, aqli zaif bolalar maktabida ta'limning «Maxsus pedagogika» darsligi uch bo'limdan iborat bo'lib, ikkinchi bo'lim Surdopedagogika deb nomlanadi. Mazkur bo'lim p.f.n.dots L.Sh.Nurmuxamedova, katta o'qituvchi D.B.Yakubjonova, p.f.n.dots Z.N.Mamarajabova tomonidan tayyorlangan. Bu bo'limda kar va zaif eshituvchi bolalar maktabida o'qitish jarayonining xususiyatlari, O'zbekiston Respublikasida eshitishida nuqsoni bo'lgan shaxslarning ta'lim tizimi, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning pedagogik tasnifi, kar va zaif eshituvchi bolalar maktabida ta'limni tashkil etish shakllari va metodlarini amalga oshirishning xususiyatlari, maxsus maktabda o'qitish jarayoni ta'limi-tarbiyaviy, korreksion-rivojlantiruvchi vazifalari va tamoyillari, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning tarbiya jarayoni mazmuni, ularni oilada tarbiyalash kabi masalalarni qamrab oladi.

Uchinchi bo'lim Tiflopedagogika deb nomlanadi. Ushbu bo'lim p.f.n.dots L.Sh.Nurmuxamedova, p.f.n.dots Sh.M.Amirsaidova, katta o'qituvchi D.Sultonova tomonidan tayyorlangan bo'lib, bu bo'limda ko'r va zaif ko'ruvchi bolalar maktabida o'qitish jarayonining xususiyatlari, ko'r va zaif ko'ruvchi bolalar maktabida ta'limni tashkil etish shakllari va metodlarini, ko'r va zaif ko'ruvchi bolalar tarbiyalash jarayonida maktab va oila hamkorligi, tiflotexnika kabi masalalar yoritiladi. Har bir bo'lim talabalarning mustaqil ishi uchun vazifalar hamda adabiyotlar ro'yxati bilan yakunlanadi.

1-BO'LIM. OLIGOFRENOPEDAGOGIKA

1-bob. OLIGOFRENOPEDAGOGIKANING UMUMIY MASALALARI

1.1. Oligofrenopedagogika predmeti, maqsadi va vazifalari, fanning rivojlanish bosqichlari

Oligofrenopedagogika predmeti, maqsadi va vazifalari yordamchi maktab o'quvchilarining aqliy faoliyat, tafakkur madaniyatini haddin qadar shakllantirish, aqli zaif o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish jarayonining samarali yo'llarini o'rgatish, yordamchi maktablarning maqsad va vazifalari haqida ma'lumot berish kabi vazifalarni o'z oldiga qo'yadi.

Oligofrenopedagogika fani o'z oldiga quydagi maqsadlarni qo'ygan: 1. Yordamchi maktabda maxsus ta'lim-tarbiya berishning mazmun mohiyatini anglatish. 2. Aqli zaif o'quvchi shaxsini rivojlanishining asosiy omillari, yosh va individual xususiyatlarini inobatga olish kabi masalalar, ta'limning ma'lumot beruvchi va kolleksion rivojlantiruvchi masalalariga ko'proq e'tibor qaratish. 3. Yordamchi maktabda o'quvchilar tarbiyasiga oid tarbiya nazariyasi va metodikasi bo'limida aqli zaif o'quvchilarni tarbiyalashning ilmiy asoslari, tarbiyaning o'ziga xos mohiyati va uslublari kabilarni o'z ichiga oladi. Maxsus maktablar uchun oliy ma'lumotli defektologlar tayyorlash ishi Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib 65-67-yillarda boshlangan edi. Dastlab Toshkentdagi Nizomiy nomli pedagogika institutining pedagogika va psixologiya fakulteti qoshida, hozir esa boshlang'ich ta'lim va defektologiya fakulteti sifatida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Defektologiya fakulteti tarixiga nazar solsak, dastlab 4 yillik kunduzgi bo'lim tashkil etilib, 1968–1969-o'quv yilidan kechki bo'lim ham faoliyat ko'rsata boshladi. 1973-yildan boshlab esa kar va zaif eshituvchilar maktablari uchun surdopedagoglar tayyorlash boshlandi.

Oligofrenopedagogika fanining asosiy maqsadlaridan biri intellektual kamchiligi bo'lgan bolalarning kamol tobib borishi,